

TONG yulduzi

№ 19
(66456)

2004 yil
10 may - 16 may

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqa
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

MUVOZANAT BUZILMASIN!

12 - May Ekologik ta'lim kuni

Aziz bolajonlar, biz insonlar tabiat bilan uzviy aloqador ekanligimizni, usiz hayot bo'lmasligini hammingiz yaxshi bilasiz. Ona tabiatga mehmimiz bisyorligi ham shundan. Bu mehr inson dunyoga kelgan chog'idanoq qalbiga singa boradi. Shuningdek, tabiat ham bizdan bor mehrini ayamaydi, yediradi, ichiradi, kiydiradi. U biz uchun bamisli beshik, quchog'i ona bag'ridek taftli. Shunday ekan, uni biz ham avaylab-asrashimiz, ardoqlashimiz kerak. Zero, buyuk allomalarimiz, ajdodlarimiz ham buni ta'kidlab kelishgan. Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali inb Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojiblarining asarlarida tabiat bu eng avvalo hayot, tiriklik asosi ekanligi ta'kidlangan.

Ekologik tarbiya insonning hayotga, biosferaga bo'lgan yangicha munosabatlarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi.

Tabiiy boyliklar odamzotga in'om etilgan buyuk ne'matdir. Keyingi yillarda insonning tabiatga

faol aralashuvi natijasida yer shari yuzasi iqlimi, o'simligi, hayvonot olami tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi. Azon qatlamining kamayishi oqibatida «issiqxona» ta'sirining vujudga kelishi va kislota yomg'iri: yer va suvning pestitsid, kimyoviy o'g'itlar va sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi, yadro va kimyoviy qurollar bilan bog'liq ko'ngilsiz voqealarning rivoji - bularning bari ehtiyoji kundan-kunga ortib bora yotgan insonlarning tabiatga bergan zarbasi bo'lib, biosferamizga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Inson tabiatdan o'ziga kerakli narsalarni olib, evaziga uni turli chiqindilar bilan «siylamoqda». Jahon sanoati yiliga 32 milliard kubometr ifloslangan suv, 70 million tonna zaharli gazlar va 250 million tonna changni chiqarib tashlamoqda. Hozir atmosferada zaharlangan gazning miqdori qariyb 20 foizni tashkil etadi.

Ekologiyaning yomonlashuvi bilan bog'liq saraton, SPID kabi kasalliklar yildan yilga ko'payib bormoqda. Orolimiz qurishi natijasida yaxlit dengiz emas, ikkita qoldiq ko'lga aylanib

XAVOFTIR

Asqar degan bola bor,
Qitig'i ko'p ola bor,
Alang-jalangdir hamon,
Yasagani yoy-kamon.

Rogatkasi qo'ymida,
Qushlar ovlash o'yida,
Dala-yu bog' kezadi,
Qushlar undan bezadi.

Qo'ng'iz, kirpi, toshbaqa,
Ari ham undan xafa.
Ninachi-yu kapalak
Chumoli holi halak.

Asqar polvondan qo'rqib,
Asqar polvondan hurkib,
Barisi qochib borar,
Ov sirin ochib borar.

Asqar degan boladan,
Qitig'i ko'p oladan,
Qo'rqish bo'lsa shunchalik,
Hurkish bo'lsa shunchalik,

Shu zaylda ketsa ish,
Tashvish ustiga tashvish.
Fozda bog' bo'shab qolar,
Ayting, unda ne bo'lar?

UMIDA.

bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham ulgursangiz uni ekib qo'yavering», deb uqtirilgan fikrlarning qanchalik muhim va zarurligini ta'kidlashning hojati bo'lmas kerak.

Vatan mahalladan boshlanadi. Ularning obodligi, tozaligi atmosferaning sofligiga olib keladi. Musaffo havo esa salomatligimiz garovidir.

qoldi.

Insoniyatning toza suvga bo'lgan ehtiyoji kun sayin ortib boryapti.

Ko'pchilik suvni hech qachon t a m o m bo'lmaydigan boylik deb o'ylaydi. Afsuski, unday emas.

Chuchuk suvlarning sofligini kimyo va neft sanoatlaridan chiqqan og'ir metallar flor, fenol, xlor va boshqa zaharli moddalar buzyapti...

Zero, zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, yerni, suvni, olov va havoni ifloslantirgan odam gunohkor-jinoyatchi hisoblanib, 400 qamchi urish bilan jazolangan. Hadisi sharifdagi «Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda

bexosdan qiyomat qo'yim

bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham ulgursangiz uni ekib qo'yavering», deb uqtirilgan fikrlarning qanchalik muhim va zarurligini ta'kidlashning hojati bo'lmas kerak.

Vatan mahalladan boshlanadi. Ularning obodligi, tozaligi atmosferaning sofligiga olib keladi. Musaffo havo esa salomatligimiz garovidir.



Lobar AZIZHO'JAYEVA chizgan surat

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tabiatdagi muvozanatning buzilishida asosiy aybdor insonning o'zi. Tabiatni faqat inson mehr-muhabbati, mehr-shafqati bilan muhofaza qilishi mumkin. Shundagina ekologik falokatning oldi olinadi, insoniyat xavf-xatardan omon qoladi.

J. URCHINOV,
Navoiy viloyati,

Pedagoglarni qayta tayyorlash,
malakasini oshirish instituti professori.


Yu. ORIPOV,

Jismoniy tarbiya, san'at va mehnat
ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi.

Saida MASHRAPOVA,
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi
4 maktabning 9 sinf o'quvchisi.



Shoxista RAJABQULOVA,
«Bo'ston» iqtidorli bolalar
litsey internati o'quvchisi.



Bugungi kunda viloyatlardagi maktab o'quvchilarining talaba bo'lolmayotganligiga nima sabab bo'lmoqda? Birgina misol: Men o'zim tahsil olgan maktabdan 2003 yil oliy o'quv yurtiga birorta o'quvchi kira olmadi! Bunga kim aybdor? Maktabdagi muhitmi yoki oilada nazoratning susayganimi? Ota-onalarning gapiga qaraganda, ba'zi o'qituvchilarning o'z darslarini to'la-to'kis o'tmayotganligi va darsliklarning narxлари qimmat ekanligi emish. Yana bir gap, nega o'quvchilar darslardan qoniqmay repetitor yordamiga muhtoj? Ba'zi yosh o'qituvchilar bilim berish darajasiga

yetishmagan. Ularning o'zlari bilimlarini oshirishlari kerak. Chunki hozirgi davrda yangicha dars usullarini o'ylab topish, o'quvchining diqqatini o'z darsiga jalb qila olishi kerak. Xullas, hamma gaplar bir-biriga borib taqalaveradi.

KALIT QANI?

Avvalo aybni o'zgan emas, o'zimizdan axtarishimiz kerak. Hozirgi sharoitda har yili yangi o'quv programmalari bilan nashr qilinayotgan narxi qimmat kitoblarni hammasini sotib olib berish ota-onalarga ham

Muhokama uchun mavzu

oson emas. Men oliy o'quv yurti talabasiman. Viloyatdan kelgan ba'zi tengdoshlarim rus va ingliz tilini deyarli bilishmas edi. Ular xorijda o'qib kelayotgan tengdoshlarimizga havas qilibmi, shunchalik darajada bilim olishga kirishib ketishdiki, kechagina til bilmaydigan talaba bugun imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tib, Amerikaga borib o'qish huquqini qo'lga kiritdi. Demak, o'qisa bo'larkan. Muhit ham kishiga ta'sir qiladi. Biz avvalo o'zimizni anglashimiz darkor. Buning kaliti -yana o'zimizda!

Mansur YUNUS.

Men kichikligimda o'qishga sira ham qiziqmasdim. Ko'chada bolalar bilan mazza qilib kechgacha to'p ortida yuguranim-yugurgan edi. Lekin maktab ostonasiga qadam qo'yganimgan so'ng, mening maktab haqidagi fikrim tamoman

DO'STIM BO'LING!

o'zgardi. Ilk ustozim Nasiba opaning o'gitlaridan 4 yil bahramand bo'ldim. Ular bizga o'qish va yozish bilan birga mana shu aziz vatanga muhabbat hissini ham uyg'otdilar. Maktabga birinchi kelgan vaqtlarimni eslasam, kulgim keladi. Xuddi birov bilan urushib qolgandek tutardim o'zimni. Keyinchalik bu yerdagi sinfdoshlarimga o'rganib ketdim. Bir-birlarimiz bilan xuddi aka-ukadek bo'lib qoldik. Maktabga kelgach, Elyor, Mira'zam, Ixtiyor, Sardor, Sarvar, Bahrom, Sirojiddin va Xurshidlar bilan juda qalin do'st bo'lib oldik. Ular bilan doim birgaman. Hatto qiynalib qolgan fanlarimizdan ham bir-birimizga yordam berib turamiz. Ha, «Ming so'm puling bo'lmasin, lekin yuzta do'sting bo'lsin», degan naqlda gap ko'p ekan...

Islom MADIYOROV,
Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi 33-
o'rtta maktabning 9- «B» sinf o'quvchisi.

OLAM UZRA YANGRASIN, DILKASH MUSIQA!

Yurtimizning ko'plab iqtidorli yoshlari, bugungi kunda xorijlik tendoshlari bilan bilimning barcha yo'nalishlarida bemalol bellasha oladilar. Musiqa, sport esa barcha qobiliyatlarini birlashtirib, o'z maskaniga sayohatga chorlaydi. Bu sohalaridagi tanlov va musobaqalar o'quvchilar uchun xorijga yanada kengroq yo'l ochib bermoqda.

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 2- musiqa maktabi o'quvchilarining erishgan yutuqlari buning yorqin ifodasidir. Qator yillardan buyon tanlovlarda g'oliblikni qo'ldan bermay kelayotgan san'atsevar bolajonlar 2003 yilda bo'lib o'tgan «San'at g'unchalari», shu yil bo'lib o'tgan Muxtor Ashrafiy nomidagi «O'zbekiston Vatanim mening» tanlovida birinchi o'ringa kiritib, xorijga safarga o'tlanmoqda. Bu haqda ta'lim maskani direktori Sayyora Odilova shunday deydi:

-Maktabimiz 1957 yilda tashkil topgan bo'lib, juda ko'p qobiliyatli o'quvchilar uchirma bo'lgan. Aksariyati yurtimiz oliygohlarida o'qituvchilik qilib, o'zlariga mos va o'zlariga xos shogird tayyorlashayapti. Maktabimizda Yevropa cholg'u asboblardan fortopyano, skripka, gitara, o'zbek xalq cholg'ularidan dutor, doira, rubob

va estrada vokal guruhlari faoliyat ko'rsatadi. O'quvchilarimiz Zuriya Movsesyans, Lyudmila Setagorova, Irina Mailyans kabi o'z

Bugunning bolasi

kasbini sharaflayotgan ustozlarimizdan behad minnatdor bo'lishmoqda. Ta'lim maskanimizda tahsil olgan Durдона Yo'ldosheva, Madina Ziyovuddinovalar Hamza nomidagi musiqa kollejiga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilingan bo'lsa, Aziz Sulaymonov Nizomiy nomidagi Pedagogika Universitetiga o'qishga kirdi.

O'z navbatida musiqaga qiziquvchan o'quvchilarga musiqa maktabimizda yangi o'quv yili uchun tanlov e'lon qilinganini ma'lum qilib, dars jadvalini ularning asosiy o'qishlariga xalaqit bermaydigan

tarzda bamaslahat tuzamiz. Maktabimiz binosi zamonaviy ta'mirlangan, barcha qulayliklarga ega. Bu borada Nodira Hamroyeva boshchiligidagi «Nidi» firmasining hissasi katta.

Ha, ta'lim maskanida amalga oshirilayotgan xayrli ishlarni ko'rib ko'nglingiz quvonadi. Musiqa maktabining mehridaryo ustozlari va o'quvchilari bilan xayrlashar ekanmiz, ularning kelgusi ishlariga omadlar yor bo'lsin deymiz.

Muharrama PIRMATOVA.



Dunyodagi eng hurmatli, ibratli, e'zozli insonlar kimlar, deya so'ralsa, albatta ustoz-murabbiylar, degim keladi.



edilar. Aslida oila, bolalar tashvishi, zarur uy yumushlarini bir chekkaga surib, maktabga oshiqadigan, o'z vazifasini ortig'i bilan bajaradigan,

o'quvchilariga bilimga qo'shib mehrni ham ulashadigan ulug' siymolar mehnati chetdan qaralgandagina oson. Ular hayoti, ish faoliyati bilan yaqindan tanishganimizda esa olayotgan mehnat haqlarini halol lab

narsalarni, jumladan, shogirdlarga mehr-muhabbat, ilm ulashishni o'rganganman. Hayotda nimalar bo'lmaydi, deysiz?! Ko'plar qiynalgan damlarida ota-ona, yoru do'stlaridan madad kutadilar. Men esa doimo ustozimning yordamiga tayanganman. Shunday damlarda ular avvalo shirin so'zlari, Ibrat qolaversa, hayotdagi tajribalaridan so'zlab berib, menga yordam qo'lini cho'zar edilar. Shulardan xulosa qilib, o'zim ham shogirdlarimdan mehrimni ayamayman, qo'limdan kelgancha ularga ko'mak beraman. Mehnatlarim samarasiz ketayotgani yo'q. Ayniqsa, bayram kunlari sobiq o'quvchilarim tabriklab kelganlarida, boshim ko'kka

katta mas'uliyat yuklaydi. Kezi kelganda shirin so'z bilan, goho qattiqqo'llik bilan ularga ta'lim-tarbiya berish kerak. Ularga harf tanitguncha, ne-ne zahmatlarni bosib o'tamiz. Men mehnatlarimni minnat qilayotganim yo'q. Shunday zahmatlarimiz evaziga shogirdlarimiz yetuk insonlar bo'lib voyaga yetsa, bizga boshqa narsa kerak emas. Mehnatlarimizga rozi bo'lamiz.

O'z kasbining mohir ustasi Lyubov Mixaylovna mehnatlari munosib baholangan. Prezidentimiz I.A. Karimov 2003 yil «O'qituvchilar va murabbiylar» kunida ustozni «Shuhrat» medali bilan taqdirladilar. Bolajonlar, siz ham o'z ota-

USTOZLARGA SOVG'A KERAKMI, YO MEHR?

Ota-onalarning ustozlar haqidagi ushbu gaplari qulog'imga chalinib, ozmi-ko'pmi o'ylanib qolishimga sabab bo'ldi:

-O'qituvchilarga nima bo'lgan o'zi? O'quvchilarning ota-onasi qayerda ishlashiga, ularning sovg'asiga qarab baho qo'yishadi. Aslida baho sovg'aga emas, bilimga qo'yilishi kerak-ku...

Balki, bu gaplarda ham ozmi-ko'pmi haqiqat bordir. Aytishadi-ku, guruch kurmaksiz bo'lmaydi, deb. Ammo, barcha ustozlarga ushbu aybni qo'yish noto'g'ri bo'ladi, deb o'ylayman.

Chetdan qaralganda ustozlar mehnati uncha qiyin emasga o'xshaydi-ku, lekin... Ana shu lekini bo'lmaganda edi, ustozlar bu darajada olqishga sazovor bo'lmas

topayotganlariga, ota-onalarning chin dildan tahsinlariga sazovor bo'layotganlariga guvoh bo'lamiz.

Ana shunday halol, bahoni mansab yoki sovg'aga emas, balki bilimga qo'yadigan ustozlardan biri Glushkova Lyubov Mixaylovna'dir. Daraxt bir joyda ko'karadi, deganlaridek, u ham Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi Oybek nomli 14- umumta'lim maktabida 33 yildan buyon mehnat qilib kelmoqda. Bag'ri keng ustozni barcha hamkasblari, shogirdlari iliq so'zlar bilan tilga oladilar. Bolalarni jondan sevgani bois boshlang'ich sinf o'quvchilariga saboq bersa-da, hecham horidim demaydi.

-Birinchi ustozim deb Kamishenskaya Mariya Gaffarovnani tan olaman, - deya gap boshladi ustoz tabassum bilan. - Ulardan juda ko'p

yetadi. Sovg'adan deb o'ylamang. Biz ustozlarga sovg'adan ko'ra bir og'iz shirin so'z, mehr, e'tibor qadrliroq, deb hisoblayman. Ba'zida ota-onalarning qimmatbaho sovg'alarini ko'rib o'ylanib qolaman. Axir, ustozlarga aytilgan bir og'iz iliq so'z har qanday sovg'adan ustun emasmi?! Hozirga qadar 11 marta boshlang'ich sinflarni yuqori sinfga kuzatdim. Ota-onasining erkatoyi, kechagi bog'cha bolalarining maktab partasida o'zlarini qanday tutishlarini bir tasavvur qilib ko'ring-a?! O'yinqaroq bolajonlarni maktabning o'ziga xos qonun-qoidalariga moslashtirish, ularga harf tanitish ustoz zimmasiga



Gulyuz VALIYEVA tayyorladi.

Farzand... U oilaning gultoiji. Bola bor uying fayzi ham bo'lakcha. «Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor», deb bejiz aytilmagan axir.

Farzand uchun esa kim va nimalar aziz? U tug'ilib

Afsuski, otamning umrlari qisqa ekan, ajal hech kimdan so'ramay g'olib bo'laverarkan. Otam olamdan o'tgach, baxtli bolaligim ham men bilan xayrlashganini ko'p o'tmay payqadim. Tengdoshlarim

ularda ham jajjigina qalb, eshitish, his qilish hislati bor. Yaxshi va yomonni tezda ajratadi», der edilar otajonim. Bizga biron yumush buyursalar ismimiz yoniga «jon» so'zini qo'shib, «siz»lab ish

TASHLAB KETMA MENI, BOLALIK...

o'sgan tuproq - Vatani, ko'z ochib ko'rgani - onasi, suyangani tog'i - otasi. Ulg'aygani sayin esa ongi, tafakkuri ham o'sib boraveradi. Ota-ona bag'rida, o'z uyida ulg'aygan bola otanasiga cheksiz mehr qo'yadi. Ulardan erta judo bo'lib, muruvvat uylarida tarbiyalanayotgan bolalar kimga mehr qo'ya oladi? Keling, gapni cho'zmay, muruvvat uyida men tanishgan Tolibjon ismli bolakayning ko'nglidan o'tkazayotgan fikrlarini uning tilidan hikoya qilay...

Esimda... Hovlimiz juda katta va shinam edi. Unda har xil mevali daraxtlar o'sardi. Menga ayniqsa, shoxlari qo'shni hovlisiga tarvaqaylab o'sgan olma daraxti yoqardi. Bu daraxtni otam bilan birga ekkani edik. Voyaga yetgach, bir yili ko'p, bir yili kam hosil berardi. Uning soyasida o'rtoqlarim bilan o'ynardim.

so'zlarimni eshitib, bu bolaning onasi yomon ekan-da, otasi o'lgach, uni yetimxonaga tashlab ketibdi-da, deya o'ylashayotgandir. Yo'q, otajonim juda yaxshi edilar. Ular ukalarimni, meni boshqalardan kam qilmaslik uchun ko'p harakat qildilar. Ular biz uchun baland chiqib, past tushib ikki joyda ishlardilar. Erta-yu kech tinim bilmay, og'ir mehnat qilishlari oqibatida tez-tez betob bo'lib qolardi. Buning ustiga yuragi xasta edi. Ukalarim bilan ularni qanchalik avaylasak ham otamdan keyin 3 yilgina yashab, hayotdan ko'z yumdilar. Ularning vafotidan so'ng men va ukalarim muruvvat uyiga keltirildik.

Eh-he... Men uchun aziz bo'lib qolgan bolalik bilan bog'liq xotirotlarni, bir ushoqni e'zozlab ko'zga surtgandek qayta-qayta eslayman.

«Yosh bolani tushunmaydi, deganlar adashadilar. Aslida

buyurdilar.

Onajonim esa... goho bilib-bilmay u kishining dillarini ranjitib qo'yganimdan halihanzuz afsus chekaman. Bir kuni ular menga, «Mazam yo'q bolam, boshing toshdan bo'lsin, endi sen ukalaringga ham ota, ham ona bo'lasan», desalar, «Hadeb gapiraverasizmi, o'zim bilaman», deb jerkib bergandim. Bilaman, shunda ham meni kechirar edingiz-a, onajon. Chunki ko'nglingiz oppoq paxtadek yumshoq edi. Ushbu dilozor so'zlarim uchun o'zimni bir umr kechirolmam kerak.

Aziz tengdoshlarim, bu dunyoda eng katta boylik bo'lgan ota-onangizni asrab-avaylang. Ular ko'nglini og'ritmang. Toki ota-onangiz bor ekan, sizning quyoshdek panohingiz bor.

Hech kimsa aslo ota-ona bag'ridan erta judo bo'lmasin.

Muhayyo MIRSAYDOVA.

NIGORANING QO'G'IRCHOQ'I

Yaqinda ko'chamizga ko'chamizdagi xulqi yomon yangi qo'shnilar ko'chib bolalar uning qo'g'irchog'ini kelishdi. Ularning qo'lidan tortib olib, birlariga otib ko'ptok qilib qizchasi bor ekan. o'ynashdi. Nigora bo'lsa, Nigora o'n alamdan yig'lab yubordi.

yo'shg'a Nogiron qizchaga ozor to'lgan bergan bolalarni juda bo'lsa-da, yomon ko'rib ketdim. haligacha Koptok misol yurolmaydi. qo'g'irchoqni Onasi har kuni ularni oyog'i nogiron qizini ostidan oldim-da, mahalla bolalari aravachada yig'lab o'ynaydigan joyga o'tirgan Nigoraga aravachasida olib qaytarib berdim. U chiqadi. U qo'g'irchog'ini qo'liga maktabga olar ekan: «Yaxshi bola bor olmaydi, ekansan», dedi o'yinlarimizga ko'zidagi yoshlarini qo'shila olmaydi. artib. Men bezori



Ammo bizning bolalardan kaltak yeganimni o'yinlarimizni ko'rib ham unutib, shu so'zlardan tomosha qilib o'tiradi. xursand bo'lib ketdim. Shu Endilikda onasi uy tobda Nigoraning yumushlarini bajarish uchun qo'g'irchog'i ham menga uni maydonchada qoldirib qarab jilmaygandek bo'ldi.

ketadigan bo'ldi. Biz turli xil o'yinlar bilan mashg'ul bo'lganimizda, u miriqib tomosha qiladi. Doimo o'zi bilan olib yuradigan qo'g'irchog'ini mahkam ushlab oladi. Bir kuni

O'ktam MARDIYEV,
Navoiy viloyati,
Uchquduq shahridagi
29-o'rta maktabning
4-sinf o'quvchisi.

«Baxt-iqbol huquqiga egaman» ko'rik-tanloviga

Maktabdan kelib, uy yumushlarini bajarayotgandim, to'satdan telefon jiringlab qoldi. Go'shakni ko'tarsam, tuman «Mehribonlik» nogironlar jamiyatidan ekan. Ular ikkinchi guruh nogironi bo'lgan oyijonimni

Murod Yo'ldoshev, Jamolxon Sayfullayev kabi sevimli san'atkorlarimiz ijrosidagi shirali kuy va qo'shiqlar, jozibador raqslar yig'ilganlar kayfiyatini ko'tarib yubordi...

MUZQAYMOQNI KAMROQ YEB...

G'afur G'ulom nomli madaniyat va istirohat bog'ida bo'ladigan tadbirga taklif qilishdi. Bu xushxabarni eshitib, anchadan buyon to'shakka mixlanib, siqilib yotgan oyijonimning boshi ko'klarga yetdi...

Nihoyat kutilgan kun keldi. Oyijonim bilan boqqa

«KAMOLOT»ga taklifim

borganimizda bu maskan mehrga, e'tiborga tashna insonlar bilan gavjum edi. Toshkent shahar o'zaro ijtimoiy yordam «Mehribonlik» nogironlar jamiyati tashabbusi hamda mazkur bog' rahbari Bahodir aka Sultonov homiyligida o'tkazilgan tadbirga shahrimizning hamma tumanlaridan turli yoshdagi mingdan ziyod nogironlar tashrif buyurishdi. Bolajonlar uchun barcha attraksionlar bepul xizmat qildi. Mehmonlarni shohona taomimiz osh bilan siylashdi. Bahrom To'ychiyev,

Imkoniyati cheklangan insonlar yuz-ko'zlaridagi shodlikni, mamnuniyatni ko'rib, ularning o'ksik qalblariga oz bo'lsa quvonch olib kirayotgan Bahodir aka singari sahovatli insonlarga astoydil havas qildim...

Men maktabimizdagi «Kamalak» bolalar tashkilotining sardoriman. Sevimli gazetamiz «Tong yulduzi» orqali barcha tengdoshlarimni, «Kamolot» va «Kamalak» sardorlarini xayrli ishlar qilishga chorlamoqchiman. Bir-ikkita muzqaymoqni kamroq yeb, tejalgan pulimizga mehrga muhtoj do'stlarimizga sovg'a-salom olsak, ular ko'nglini ko'tarsak bo'ladi-ku. Gap sovg'aning katta-kichikligida emas, mehr va e'tiborda, shunday emasmi?..

Nargiza SAYDULLAYEVA,
Toshkent shahar, Akmal Ikromov
tumanidagi 296 - maktabning 6 - sinf
o'quvchisi.

O'quvchilar saroyida to'garak boshqarardim. Bir kuni Akbar ismli bola kirib keldi. To'garak mashg'ulotlarida qatnashmoqchi ekanligini aytdi. Rozi bo'ldim. To'garakdagi boshqa bolalarga yetib olishi uchun u bilan alohida, shug'ullanishimga to'g'ri keldi. Zehnli bola ekan, o'tgan mavzularimni yaxshi o'zlashtirib oldi. Oradan hech fursat o'tmay o'rtoqlari

qolgan ekan. Meni ko'rib, sevinib ketganidan yig'lab yubordi. Yupatishga harchand harakat qilmay, u yig'idan to'xtamasdi:

-Oyim ham, dadam ham bir kelib xabar olishmaydi. Mana, siz kelibsiz, rahmat!-dedi ko'z yoshlarini artib.

-Kelib qolishar, yig'lamagin dedim-u, o'zim ham unga qo'shilib yig'lab yubordim...

Men hali yoshman, talabaman, turmush so'qmoqlaridan o'tganimcha

O'ZINGA «UKA» TOPDIM

hatto ularga bahslashadigan, o'rgatadigan bo'lib qoldi...

Ta'tildan so'ng Akbar bir haftacha mashg'ulotga kelmadi. Qayerda yashashini surishtirdim. Uning «Mehribonlik uyida» tarbiyalanishini eshitib, u yerga qidirib bordim.

Akbar betob bo'lib

yo'q. Akbarning ota-onasi haqida biror fikr bildirishga ham haqqim yo'qdir. Lekin hayot bo'la turib, o'z dilbandini yetimxonaga berib ketadigan otanalarga nisbatan bo'lgan nafratimni yashirolmayman. Ayniqsa, Akbarday iste'dodli boladan voz kechgan otanani hecham tushunolmayman. Mening singillarim bor-u, o'g'il ukam yo'q. «Akbarni uka qilib uyimizga olib ketsammikan», degan fikr keldi menga. Avval u tuzalib olsin, keyin gaplashib ko'raman. Agar ko'nsa, uni albatta oilamiz bag'riga olib ketishni maqsad qildim.

Malika RAHMONBEKOVA,
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti
sovrindori.



Endigina xizmatdan qaytgan harbiy akasining bosh kiyimini kiyib olib, o'rtog'lariga ko'z-ko'z qilayotgan bolakayni hech kuzatganmisiz? Uning nigohlaridagi havas va hayajonni-chi? Orzulari bilan ham o'rtog'lashganmisiz?..

Bu holat har bir o'g'il bolaga xosdir. Chunki ulg'aygach, harbiy bo'lishni orzulamaydigan bolaning o'zi bo'lmas kerak. Lekin harbiy bo'lishning ham o'zi bo'lmaydi. Buning uchun nimalar qilish kerak? Aynan shu mavzuda O'zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik xizmati Chegara Qo'shinlari Matbuot markazining boshlig'i podpolkovnik Xolmurod Allazarovga murojaat qildik: "Olib

borayotgan tahlillarimizga ko'ra harbiy xizmatga chaqirilayotgan yoshlarning juda

ko'pchiligi chegara qo'shinlari safida xizmat qilishni istashadi. Bu yerdagi ofitserlar va shartnoma asosida xizmat qilayotgan serjantlar tarkibi o'z sohasining kuchli bilimdonlaridir. Chegara postlaridagi shart-sharoitlar, xoh u tog' oldi, xoh u cho'lu-biyobon bo'lsin, atrof-muhitning tozaligiga e'tibor berilganligi, yo'llarga asfalt yotqizilib, hatto gaz olib kelinganligi, kuzatuv jarayonlarining zamonaviy texnika, asbob-uskunalar bilan jihozlanganligi o'ziga xos ijobiy natijalar bermog'da", deydi Xolmurod aka.

O'QITUVCHINING O'QITUVCHIDAN FARQI NIMADA?

Toshkent viloyati, Quyichirchiq tumanidagi 46- o'rta maktabda tahsil olganman. Sinfimizda 4 nafar qiz va 21 nafar o'g'il bolalar o'qishardi. Barcha fanlardan faqat a'lo va yaxshi baholarga o'qirdik. Ustozlarimizning berayotgan har bir sabog'ini jon-qulog'imiz bilan tinglardik. Ba'zan maktabdan to'g'ri yaganaga, chopiqqa, paxta terimiga olib borishardi. Ammo birorta o'quvchining o'zlashtirishi pasayib ketmasdi. Sababi, o'qituvchilarimiz nihoyatda kuchli bilim berishardi. Ayniqsa, matematika o'qituvchimiz Battol Iskandarovning

dars berish uslubi mo'jiza desam mubolag'a emas. Ustozning bizga mehri balandligi bois, uyiga yaqin maktablardan ishga taklif qilishganda ham bormagan edi. Muallimni biron marotaba darsga

kechikib kirganini yoki dars paytida yumushi chiqib qolganini hech eslolmayman. Tarix o'qituvchimiz Komil Xoliqov esa o'tayotgan darsini xuddi hayotiydek tasvirlardi. Avlod-ajdodlarimizning qiyofasi ko'z d'ngimizda gavdalanar, ular bilan suhbatlashayotgandek bo'lardik, go'yo.

Men ham posbon bo'laman

qoshidagi «Yosh muxbirlar» to'garagiga qatnashar edim. Muhokamadan ruhlanib yanada ko'proq yozishga intilardim. Endi yozganlarim viloyat gazetasida chop etila boshladi.

Shu tufayli qalbidam jurnalist bo'lish orzusi paydo bo'ldi. Maktabni tugatganimdan so'ng, Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O'ZMU)ga o'qishga qabul qilindim. Oliyog'ni tugatib, dastlab Televideniyaning "Yoshlik" redaksiyasida muharrirlik vazifasida ish boshladim. Ushbu redaksiya muharriri bag'ri keng inson



SIZGA MUDOM OMONLIKLAR TILAYMAN

Maktabimizdagi turli to'garaklarda o'tilayotgan qiziqarli mashg'ulotlarga barchamiz birdek qatnashardik. Imtihon bo'ladigan barcha fanlardan biletlarning savollari 2-3 oy oldin yozdirilardi, bunga tayyorgarlik jarayonida har bir o'quvchining bilimi mustahkamlanardi. Maktabimizdan 3 nafar fan doktori, 5 nafar fan nomzodi, 250 dan ortiq oliy, bir necha yuzlab o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar yetishib chiqqani ham bejiz emas. Birgina bizning sinfimizdan 90 foiz o'quvchi turli oliy o'quv maskanlarining talabalari bo'lishdi. O'qituvchining shogirdlari qalbiga yo'l topishi avvalo o'z kasbini sevishida, o'tayotgan har bir darsi mavzusini chuqur tahlil qilib, unga obdon tayyorgarlik ko'rishida deb o'ylayman.

KASB TANLASHDA ADASHMANG!

Yoshligimdan jarroh bo'lishni orzu qilardim. 9-sinfda o'qigan paytlarimda «Mo'l hosil uchun» nomli tuman gazetasida «Abdullaning o'ylari» nomli maqolam chop etildi. Maktabni tugatayotgan o'spirinning orzu-istaklarini aks ettirganim bois, gazetada uni 4-5 oygacha tumandagi tengdoshlarim qizg'in muhokama qilishdi. Bu paytda ushbu gazeta

Elbek Musayevdan bu kasbning sir-asrorini qunt bilan o'rgandim. «Talabalik oltin davrim», «Qishloqda, yashaysanmi, texnikani bil» kabi qator ko'rsatuvlarni tayyorladik. Qayerda faoliyat ko'rsatmayin, doimo ustozlarim o'gitlariga tayanardim.

1981 yildan boshlab Toshkent viloyati Ichki Ishlar boshqarmasida matbuot guruhi rahbari vazifasida ishlay boshladim. Ayni paytda esa O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati Chegara Qo'shinlari Matbuot markazida faoliyat ko'rsatib kelayapman. Harbiy sohada xizmat qilishning o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Ana shu qiyinchiliklardan cho'chimagan kishi o'z maqsadiga albatta yetadi. 5 nafar farzandim bor. Ulardan ikki nafari harbiy, kasbimni davom ettirayotganidan xursandman. Qizim - Nilufarxon serjant, Qorovul qo'shinlarida xizmat qiladi. O'g'lim Baxtiyorjon - O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Toshkent Oliy Harbiy texnika bilim yurtida o'qituvchi. Har bir inson yoshligidan kasb tanlashda o'z iqtidoriga qarab ish tutsa, adashmas ekan.

CHEGARANING O'Z SIRI BOR

Harbiy xizmatga kelgan yoshlarimizning qalbidagi ishtiyoqni, Vatanga bo'lgan muhabbatni, ona

tuprog'imizni ardoqlashini ko'rib, g'ururlanasan kishi. Ular boshlang'ich harbiy tayyorgarlikdanoq o'z iqtidorlarini ko'rsatishga intilishadi. Ayniqsa, sarhadlarimizdagi postlar yaqinida yashaydigan aholi xizmatdagilarni o'z farzandlaridek ko'rishadi, chegarachilarimizga har tomonlama ko'mak berishga intilishadi. Har bir chegaraning hech kimga oshkor qilinmaydigan o'ziga xos sir-asrori bo'ladi. Uning himoyachilaridan esa ana shu sirni mustahkam saqlash talab qilinadi. Irodali yigitlarimiz o'z burchlarini sharaf bilan uddalashmoqda. Shunday ekan, sarhadlarimiz qo'riqchilari halol, pok, vijdonli, jasur yigitlar ekanligiga hech shubhamiz yo'q.

Bugungi kunda harbiy xizmatga chaqirilayotgan yoshlarimizdan puxta bilim, sportda chiniqish, ziyraklik talab qilinayapti, Siz aziz farzandlarimdan ham doimo a'lo o'qishingizni, sport bilan muntazam shug'ullanishingizni istardim. Zero, haqiqiy er yigitlar mustaqil Vatanimiz sarhadlarini, chegaralarimiz daxlsizligini jasur pahlavonlar kabi qo'riqlaydi.

Jamila ERDONOVA yozib oldi.

Yo'lingiz tushib, maktabimizga kelsangiz, kiraverishda maxsus kiyimdagi o'quvchilarning suratlariga ko'zingiz tushadi. Bular kimlar ekan, deysizmi? Ular - bizning faxrimiz. Maktabimizda

tashkil qilingan «Yashil chiroq» guruhi a'zolari.

Bu guruh a'zolari tuman miqyosida o'tkazilgan «Yashil chiroq» musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritib, shahar bosqichiga yo'llanma olishdi.



ulashdilar. Yana, haydovchilik guvohnomasi olish uchun bepul o'qishlari mumkinligini e'lon qildilar.

G'oliblik sabab Samarqandga borib, shaharning tarixiy obidalarini ko'rib qaytishdi.

Maktabimiz sharafini himoya qilganliklari uchun ularning suratlarini ko'rinarli joyga osib qo'yildi. Biz ularning suratlariga faxr va havas bilan boqamiz, ulardek bo'lishga intilamiz.

Gulnoza ABDUSAMATOVA,

Toshkentdagi 96 - maktabning 5 - «B» sinf o'quvchisi.

«ULAR BIZNING FAXRIMIZ»



G'alaba insonni yangi-yangi zafarlar sari ruhlantiradi, deganlari rost ekan. Guruhimiz ishtirokchilari shahar bosqichida ham faxrli 1 - o'rinni egallab qaytishdi. Bu xushxabar barchamizni, ayniqsa, direktorimiz Rustam akani juda ham quvontirdi. G'oliblarni samimiy tabriklab, ularga sovg'a tariqasida soat, tasviriy san'at asarlari hamda magnitofonlar

YOSHLIK


O'n to'qqiz bahorni qarshilar yoshim,
Yaxshilar yonimda mudom yo'ldoshim.
Qalbidam jo'sh urar orzular, o'ylar,
Gullarga, nurlarga nigohim bo'ylar.

Vuksak davontarga chorlar istiqbol,
Intilganga mudom bo'lar yor, iqbol.
Yashaylik ona yurt ostonasida,
Finchilik hamroh bo'lgan bo'stonimizda.

SINFDOSSH


Qaytmas endi yoshlik damlarim,
Sinfdooshlar, qadrdon maktab.
Yonib-yonib eslayman har on,
So'zlagayman sizlarni maqlab.

Oqar suvlar, oqadi anhor.
Sog'inch solib ko'ngil qatiga.
Yoshlik ekan astida bahor,
Kim tushungay tilsim xatiga.



Sobir MAVSUMOV,

Toshkent Avtomobil yo'llari institutining 1-bosqich talabasi.



1990 yilda tug'ilgan bolalardan tashkil topgan mamlakatimiz o'smirlar jamoasi kuni kecha Nepal davlatidan qaytib keldilar. «Bolalar futbol festivali»da ishtirok etgan jamoamiz vakillari garchi 2- o'ringa sazovor bo'lishgan bo'lsa-da, negadir ularning kayfiyati yuqori emasdi. Dunyo shoxsupasida ular bilan birgalikda Turkmaniston, Pokiston, Butan, Nepal hamda hindistonlik tengqurlari «S» guruhida bahs olib borishdi va turkmanistonlik tengdoshlarini 5:0, butanlik yosh sportchilarni 2:0, pokistonlik do'stlarini esa 2:0 hisobida mag'lubiyatga uchratishdi. Mezbonlarni hurmatini qilishdimi, nepallik raqiblari bilan 1:1 hisobida durrang natijani qo'lga kiritishdi.

Umumjamo'a hisobida 1 - o'rin nepallik, 2 - o'rin o'zbekistonlik, 3 - o'rin esa hindistonlik bo'lajak futbolchilarga nasib etdi.

Biz poytaxt aeroportida safardan qaytgan bir guruh yosh futbolchilarimiz bilan suhbatda bo'ldik:

sog'indik. Musobaqalar tezroq tugasa-yu, uyimizga qaytaqolsak, deya intizor bo'ldik...

Ayni kunlarda o'z sevimli jamoam bilan yana birga ekanligimdan xursandman. Har kuni bo'ladigan mashg'ulotlarda chiniqish bilan birgalikda yozgi musobaqalarga ham qizg'in tayyorgarlikni boshlab yuborganmiz. Oldinda esa bizni kunchiqar mamlakatdagi musobaqalar kutmoqda.

Dilshod NURALIYEV,

“Paxtakor” futbol maktabi murabbiyi:

-Jamoaga kelganimga atigi ikki oy bo'lgan bo'lsa-da, bolalar bilan juda chiqishib ketdik. Maktabimizning barcha a'zolari mehnatsevar, tirishqoq bolalar. Yaqinda “Bolalar futbol festivali”da ishtirok etib qaytgan ikki nafar shogirdim -O'tkir va G'aynulla kabi mohir

Sog' yurak - tog' yurak

Tinimsiz mashg'ulotlar, musobaqalar... Safarlarga bolalarimiz ko'nikib ketishgan. Yozgi dam olish mavsumi barcha bolalar kabi bizning yosh sportchilarimizning ham orziqib kutilgan damlaridir. Ular hademay tog'lar bag'rida joylashgan “Yosh kuch” dam olish maskaniga jo'nab ketadilar. Tog'ning mo'tadil iqlimi bo'lg'usi futbolchilarga kuch- quvvat bag'ishlaydi...

Maydonda mashg'ulotlar davom etardi. Bir- biriga to'pni mohirlik bilan uzatayotgan, darvozani ehtiyotkorlik bilan qo'riqlayotgan, yarim chiziq va himoya chizig'ida abjirlik bilan to'p surayotgan bolalarga faxr bilan boqaman. Ular timsolida futbolimiz kelajagi, ertasini ko'raman.

DUNYO SHOXSUPASIDAGI G'ALABA



G'aynulla SHUKRULLAYEV:

-Men “Paxtakor” futbol maktabiga 5- sinfdan boshlab kelganman. Hozir 8- sinfni tugallash arafasidaman. Futbol olamiga kirib kelishimga mashhur futbolchimiz Mirjalol Qosimovning hayratlanarli o'yinlari sabab bo'lgan. Maktabimiz har tomonlama qulayliklarga ega. Mohir murabbiylarimizdan saboq olib, biz ham yaxshi futbolchilar bo'lib yetishsak, ajabmas. Terma jamoa safiga kirishimda albatta birinchi murabbiyim Robert Gayning xizmatlari katta bo'ldi. Mening ilk safarim Nepal davlatidan boshlandi. Men himoyachi, do'stim O'tkir esa darvozabon sifatida Nepalda bo'lib o'tgan bolalar futbol festivalida o'z mahoratimizni namoyish etdik. Terma jamoamiz boshqa davlatlardan kelgan tengdoshlarimiz orasida “kuchli jamoa” deb tan olindi. Ammo 2- o'ringa loyiq ko'rishdi-da... Biz Ketmandu shahrida joylashgan “Montain” mehmonxonasida xorijlik tengqurlarimiz bilan 18 kun birga yashadik. Musobaqalardan so'ng dam olish paytlarimizda pokistonlik Zeye Shan, Ahmed, Majid kabi bolalar bilan tanishib oldim. Har birimiz o'z yurtimiz haqida suhbatlashdik. Hammasi yaxshi bo'ldi-yu, suv masalasida biroz qiynaldik. Chunki u yerning suvi bizning suvlarimizga o'xshamas ekan. Musobaqalardan charchab, chanqab kelganimizda chanqog'imizni qondirmadi. O'zimizning yog'lik palovlarimiz tandir nonlarimizni juda - juda

o'yinchilar guruhimizda talaygina. Biz ularni to'g'ri tarbiyalab, zimmamizdagi yurtimizga iqtidorli futbolchilar yetkazib berishdek mas'uliyatni har doim his qilib turamiz.

MUSOBAQALAR QIZG'IN

Kun peshindan oqqan. Quyoshning tafti qizigan palla. Shunga qaramay “Paxtakor” stadionining kichik maydonchasi yosh futbolchilar bilan gavjum. Terlab-pishib mashg'ulot o'tayotgan bolalarning harakatlarini kuzataman.

Ularning “Paxtakor” futbol maktabining 1992 yilda tug'ilgan bolalardan tashkil topgan jamoasi a'zolari ekanligini murabbiylari Robert Gaydan bilib oldim va u bilan maydon o'rtasida biroz suhbatlashdim:

-Guruhingiz haqida gapirib bering.

-Guruhimizning 20 nafar a'zosi bor. Ularning bari o'z oldiga aniq bir maqsad qo'ygan sportsevar bolalardir.

Shogirdlarim 18-apreldan 28-iyungacha davom etadigan shahar birinchiligida ishtirok etib, peshqadamlikni qo'ldan bermay kelishyapti. Musobaqalarning ikkinchi bosqichi esa 28-avgustdan 20-noyabrgacha davom etadi. Bu kunlar klubimiz bolalari uchun ayni mas'uliyatli damlar hisoblanadi. Bunday musobaqalar bolalarning tajribasini oshirishda muhim o'rin tutadi.

-Robert, yaqinda maktab o'quvchilarining yozgi ta'til kunlari boshlanadi. Aytinch, futbol maktabining bolalari ta'tilda qanday dam oladilar?

-Sportchi bo'lish oson emas. Buni maktabimiz a'zolari yaxshi bilishadi.

G'URUMSAROY STADIONIDA

G'urumsaroy qishlog'ida joylashgan Qori-Niyoziy nomli maktabimizning mo'jazzgina stadioni bor. Abror Tursunov, Akbar Xolmirzayevdek o'z kasbining ustalari bo'lmish jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarimiz bizga fandan astoydil saboq berishadi. Ularning samarali mehnatlari zoye ketmasligiga, maktabimizdan ham mohir sportchilar yetishib chiqishiga ishonamiz. Ayniqsa, 6- sinf o'quvchisi Doston Madayevdan ustozlarimizning umidi katta. U kurash bo'yicha allaqachon tuman musobaqalari g'olibiga aylangan.

Bizga ko'plab tengdoshlarimiz havas qilishadi. Chunki bo'sh vaqtimiz stadionimizda o'tadi. Sport to'garaklarimiz esa barcha uchun bepul. Shuning uchun bo'lsa kerak, kichik stadionimiz bag'riga ba'zida bolalar sig'may ketishadi. Farzandlarining bo'sh vaqti bekor o'tmayotganidan ota-onalarimiz ham juda xursand.

Bu esa G'urumsaroy bolalarining sportga oshno ekanligi dalolatidir.

Oydinoy ESONALIYEVA,
Namangan viloyati, Pop tumani.



Inson bolasiga ko'p narsa kerak emas. Unga bir chimdim mehr bo'lsa bas. Chunki mehr toshqini daryodan kuchli bo'ladi.

Xalqi mehrlri, muruvvatli xalqdir. Chunki ota-bobolarimizdan bu fazilatlar bizga merosdir.

Ayniqsa, o'zbek xalq maqollari bizning kundalik shiorimizga aylanib qolganligi rost. Bir maqolda shunday deyiladi: «Farzandga otaning mehri ketmoncha bo'lsa, onaning mehri osmoncha bo'ladi». Bu maqol ota-ona mehrini bir-biridan ustun qo'yish yoki qandaydir mezon bilan o'lchash uchun aytilmagan. Ota ham, ona ham farzandiga birdek kuyunadi, birdek mehr beradi. Shu o'rinda tan olishimiz kerak, ona mehri haqiqatan ham osmoncha bo'lishi ayni haqiqat.

Har bir ona o'z farzandini olamdagi eng chiroyli, eng aqlli, eng odobli bola deb biladi. Bolasining kamchiliklarini fazilat deb baholaydi. Lekin...

Ana shu "lekin" ba'zida ona degan nomni bepisand qilganlar ham oramizda borligidan afsuslanishimizga izn beradi.

Men bir litsey talabasiman. Toshkent shahridagi Qoraqamish mavzesida yashaydigan do'stimnikiga ketayotсам, temir panjaraga osilib olgan bolaning menga "aka" deb murojaat qilib qolgani diqqatimni jalb qildi. Men uning iqboliga jilmayib bordim.

U esa menga allaqanday mehr to'la ko'zlari bilan boqib, "Siz menga aka bo'lasizmi?" deb qoldi. Men esa bu binoning qanaqa joy ekanligiga hali e'tibor ham berganim yo'q edi. Shunda bolakayga "Senga aka bo'lishimni istaysanmi?", dedim. "Ha, - dedi bolakay chaqnoq ko'zlarini uzmay, - agar siz menga aka bo'lganingizda, ikkalamiz birgalashib mening oyimni topardik", dedi. Bolaning gaplaridan g'alati holatga tushdim. Unga nima deb javob berishimni bilmasdim. Faqatgina "bu qanday joy" deya oldim, xolos. Bola esa "bu ota-onasini yo'qotgan bolalarning uyi", deb aytdi. Shundagina men binoning kirish eshigi tepasidagi "Chelnikov nomidagi 24-Mehribonlik uyi" deb yozilgan lavhaga ko'zim tushdi.

Bolakay chopqillaganicha koptok o'yab yurgan do'stlari oldiga bordi va "endi mening ham akam bor" deb qichqirdi. Do'stlari ham bir to'p bo'lib men tomon chopib kelishdi va baravariga "bizga ham aka bo'ling" deyishdi.

Shu payt ichkaridan ellik yoshlar atrofidagi ayol chiqib keldi. Bolalar o'z quvonchlarini unga aytishdi. Ayol bolalarni tinchlantirib, meni ichkariga taklif qildi. Ichkarilarkanman, bolalar meni quchoqlab ketishdi.

- Bo'ldi, bo'ldi, shu sizlarning akalaringiz. Qani endi borib o'ynanglar!-dedi ayol bolalarga.

O'zini Mehribonlik uyi tarbiyachisi Mamlakat Ismoilova deb tanishtirgan bu ayol tabiatan mehribon, ko'ngli ochiq ekan. Ona

yarasha sabablari bor. Ba'zilarini

esa kechirishga ham tiling bormaydi. Keling, ular haqida gapirmay qo'ya-qolaylik. Gunohi va savobi o'zlarining bo'ynida.

- Mamlakat opa, bu yerga muruvvatpesha kishilar ham kelib tursa kerak, a? - deyman gap orasida savol tashlab.

- O'zbekimdan aylanay, - deydi Mamlakat opani. - O'zlarining ming xil tashvishlari

«Baxt-iqbol huquqiga egaman» ko'rik-tanloviga

ularga dalda, suyanch bo'lish, deb o'ylayman.

- Bu bolalarni o'z qaramog'iga olishni xohlovchilar ham bormi?

- Albatta bor, - dedi Mamlakat opa nimalarnidir eslab. - Shunaqa talabgor oilalar kelganda, biz ularni yaxshi kutib olamiz. Ular bilan yaqindan tanishamiz, oilaviy sharoitlarini surishtiramiz. Kerakli hujjatlarni tayyorlashda o'zimiz yordamlashamiz.

Bunday oilalardan hukumatimiz ham kerakli imtiyoz va yordamini ayamaydi. Bizning

maqsadimiz- bola qayerda bo'lmasin, qalbi kemtik bo'lmasin.

Shu payt suhbatimizga bir guruh bolalar kelib qo'shilishdi. Mamlakat opaning chehrasi yanada yorishib ketdi.

- Mening ismim Dilshod, - dedi o'n yoshlar atrofidagi bolakay burro-burro gapirarkan. Uchinchi sinfda o'qiyman. Bu yerdagi ikkita ukam ham tarbiyalanadi. Sharoitimiz yaxshi, erkinmiz, xohlagan ovqatimizni yeymiz, kamchiligimiz yo'q. Tarbiyachilarimizni "oyijon" deymiz. O'zinning ham oyijonim borlar. "Agar ko'p pul topsam, sizlarni olib ketaman", deydi. Men uxlash oldidan har kuni oyijonimni duo qilaman. "Tezroq ko'p pul topsinlar", deyman. Hali men ham katta bo'laman, mashina sotib olaman. Ana o'shanda oyimni mashinamda shahar aylantiraman. Mamlakat oyimni ham mashinamga mindiraman.

- Men esa haydovchi bo'laman, - dedi Sobir degan bola qo'lini baland ko'tarib. - Katta mashina haydayman. Mamlakat oyimni men mashinamga mindiraman.

- Men bankda ishlayman! - dedi Jasur.

- Men arxitektor bo'laman, baland-baland uylar quraman...

- Men qo'shiqchi bo'laman, Mamlakat oyim haqida qo'shiq yarataman...

Bu bolalarning orzulari ko'p. Ularning adabiyotga, tilga qiziqishlari meni lol qoldirdi. Biri o'zi yozgan she'rini o'qisa, biri mashhur shoirming she'rini yoddan aytib berdi. Yana arab, ingliz tillarda ham she'rlar aytib berishdi. Bu she'rlar qaysi tilda yangramasin, bari ona haqida, ona mehri haqida edi.

Ularni tinglayapman-u, xayolimda shoirming quyidagi misralari gavdalandi:

*Tashna yashadik biz mehrga mutloq,
Ishqqa, muhabbatga tashna o'tdik biz...*

Farrux ZOYIROV,

Toshkent Moliya instituti qoshidagi
Moliya akademik litseyi talabasi.

MEHRGA TASHNA YURAKLAR

menga ko'p narsalarni gapirib berdilar. Meni ichkariga boshlaganlarida bu yerdagi holatni o'z ko'zim bilan ko'rdim. Xonalar keng va shinam, har bir xona bolalarning didiga mos ravishda bezatilgan, o'quv xonalari zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlangan. Oshxonadagi holat bu bolalar hech kimdan kam emasligidan dalolat beradi. Ularning egnidagi kiyimlarining tozaligi - bu bolalar ota-onasi bag'rida yashayapti degan taassurot qoldiradi kishida.

- Bu yerdagi 126 bola tarbiyalanadi, - dedi Mamlakat opa ikkinchi marta tashrif buyurganimda. - Hammasini bir ko'zda ko'rishga harakat

bo'lsa-da, shu bolalardan xabar olgani ko'pchilik kelib turadi. Sovg'a-salomlar, kiyim-kechaklar olib kelishadi. Homiylik qilib, bayramlarni xursandchilik bilan o'tkazib berishadi.

Bu yerda bolajonlar uchun turli xil to'garaklar mavjud. Musiqa, raqs, rassomchilik, kashtachilik, til o'rganish to'garaklari doimiy ravishda ishlab turibdi. Turli institut talabalari kelib bolajonlarga arab, yapon, ingliz, turk tillarini o'rgatib turishibdi. Sport bilan shug'ullanish uchun barcha qulayliklar muhayyo. Bolalar turli sport musobaqalarida qatnashib, sovrinli o'rnlarni egallashgan. Diplom, faxriy yorliq, kuboklarni ko'rgan bo'lsangiz kerak? Bu bolalarning har birida allaqanday yashirin iste'dod bor. Bizning vazifamiz ana shu iste'dodni vaqtida aniqlab to'g'ri yo'naltirishdir. Ertaga, ulg'ayganda "otam bo'lganida unday bo'lardim, onam bo'lganida bunday bo'lardim", deb o'ksib yurishmasin deymiz-da.

- Bu bolalarning orzulari osmoncha bordir?

- Nimasini aytasiz, Farruxjon, - deydi Mamlakat opa. - Hali bolalarning o'zidan ham eshitasiz. Hammasi birday katta odam bo'lgisi keladi. "Men katta odam bo'lsam, dovrug'imni eshitib ota-onamning o'zi meni topib oladi", deb o'ylashadi. Ana shunday tuyg'u ularni yanada tirishqoq, hayotga intiluvchan, orzusini amalga oshirish uchun kurashuvchi qilib tarbiyalaydi. Mehrga tashna yuraklari hapriqadi. Ertaga o'zlariga o'xshagan yuraklarni mehrga to'ldirishga harakat qilishadi. Ularni tashlab ketgan ota-onalari mulzam qilish uchun emas, aksincha,



Barchamizga ma'lumki, 9-may mamlakatimizda «Xotira va qadrlash kuni» sifatida nishonlanadi. Bu kunda o'tganlarimizni yodga olinib, qariyalarimiz va nogiron kishilar qadrlanadilar.

Oramizda shunday insonlar borki,

QALBDAGI QABR

ularni ko'rib havas qilasan kishi. Sirtidan qaraganda, barchaning hurmat e'tiboriga sazovor, bu dunyoda eng baxtli va omadli ko'ringan bu insonlarning qalbida qancha orzu - armonlar borligi ko'pchiligimizga qorong'u.

«Yaqinlarning qabrini qayerdaligini bilib, uni ziyorat qilib turish ham katta baxt ekan». Bu so'zlarni buvam bot-bot takrorlarkanlar, ularning zamirida chuqur o'y va armon borligi yaqqol namoyon bo'ladi.

1931 yilning yozida Quloqlashtirish siyosatining qurboni bo'lgan Qo'shoq aka Ortiqov oilada ikkinchi farzand edilar. Ularning

oilalari Ukrainaga surgun qilindi. Boshqa quloq qilingan o'zbek oilalari kabi ular ham juda og'ir kunlarni boshlaridan o'tkazdilar. Turmushning mushki zo'r kelganda hech kimni ayab o'tirmaydi, deganlaridek, musofir o'lkada bu oila boshiga og'ir kulfat tushdi. Buvamning onalari Sohiba otin (ular o'n uch yoshlarida Qur'oni karimni yod olishga muvaffaq bo'lib, otin nomini olgan ekanlar), singillari Xojiniso va ukalari Jaloliddinlar vafot etishdi. Ular Odessa viloyati, Skadovsk tumani, Yastrebo xutori (ukrainchada qishloq ma'nosida)dagi qabristonga dafn etildilar.

Uch o'g'il bilan Qo'shoq aka yolg'iz qoldilar. Yillar o'tib, bu oila Vatanga qaytishga muvaffaq bo'ldi. Uch o'g'ilning bari ilm yo'lidan ketishdi. Buvamning akalari Abdurahmon Ortiqov falsafa fanlari doktori darajasiga yetishdilar. Buvam Abdurahim Ortiqov - iqtisod fanlari nomzodi bo'lib, hozirgacha TDIuning

Hamisha uyg'oq xotira

faxriy professori sifatida talabalarga bilim berish bilan mashg'uldirlar. Buvamning ukalari Abdulla Ortiqov ham iqtisod fanlari nomzodi bo'lib, yaqingacha O'zbekiston Milliy Universitetida ta'lim berib keldilar.

Ammo ularning dillarida bir armon bor. Onaizorlari va jigarlari qabrlarini topib, bir bora bo'lsa-da, ziyorat qilish. Shu maqsadda Ukrainaga borgan Abdulla aka ham ularning qabrlarini topa olmay qaytdilar. Ma'lum bo'lishicha, qabriston allaqachon tekislanib yuborilgan ekan.

Ha, mamlakatimizda bu kabi voqealar qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz juda ko'plab topiladi. O'tganlarning qabrlarini ziyorat qilishdan ko'ra, ularni unutmashlik, haqlariga duo qilishlik, doimo ularni xotirlash muhimroqdir. Zero, har bir marhumning qabri uning yaqinlari qalbida, yuragidadir.

Mahfuza ORTIQOVA, Toshkent shahar, 157-maktab o'quvchisi.

YOLG'ONCHI USMON



Jiringladi telefon,
Dastakni oldi Usmon.
Dedi: «Salom, kim kerak?»
Ovozini qilib yo'g'on.

Amakijon, men Go'zal,
Kerak edi Gulasal.
Javob berar «amakijon»,
«Gulasal opam kasal».

Dilrabo DO'STOBILOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 118 - maktabning 6 - «A» sinf o'quvchisi.



MAJNUNJOZ

Majnuntol, hoy majnuntol,
Senga boqib bo'ldim tol.
Nimalarni o'ylaysan,
Nechun buncha qadding dot?

Majnuntol, hoy majnuntol,
Bu ne turish, ne ahvol?
Yo ochdimmi yarangni,
Nagoh sendan so'rab hol!

Majnuntol, hoy majnuntol,
Turma xomush, kula qol.
Bu dunyoda hali ko'p,
Eng baxtiyor kunlar bor!

Dilafro'z BAXRIDINOVA,
Navoiy viloyati, Nurota shahridagi 1 - son Ixtisoslashgan maktabning 8 - sinf o'quvchisi.

JAVOBSIZ MUHABBAT

Salom qadrli gazetam. Yaqinda «Maktabdagi muhabbat» nomli sahifangda taqdiri xuddi menikiga o'xshash sevgisi javobsiz qolgan qizning maktubini o'qib qoldim.

...Yoshligimdan folklor ansamblida raqsga tushib yurardim. Bir kuni oyimning bir dugonalarinikida sumalak qilinadigan bo'ldi. U yerga men ham bordim. Kattakon qozonning tagiga o't qalashib turgan bir bola diqqatimni tortdi va undan ko'z uzolmay qoldim. U esa menga e'tibor ham bermadi. Notanish bolaning siymosini ko'z oldimdan ketkazolmay bir yilni o'tkazdim. Kelasi yili yana o'sha xonadonda sumalak qilinadigan bo'ldi. Men nigohlarim bilan yana «u»ni qidira boshladim. U keldi. «Bu yil ancha ulg'ayib qoldim, endi menga e'tibor bersa kerak», deb o'ylagandim. Afsus, unday bo'lmadi. U menga qayrilib ham qaramadi. Aziz do'stlarim, menga maslahat bering, qanday yo'l tutay? Unga sevishimni aytaymi, yo'qmi?

(*Ilmos, ism-sharifimni to'liq yozmang.*)
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi
S.Mallayev jamoa xo'jaligi.



Maktab yoshidagi o'quvchilarning «o'ldim-qoldim» deya oh-voh qilib gazetaga maktub yozishlari ko'payganday, nazarimda. Bunday mazmunda maktub yo'llayotgan tengdoshlarim bir-birlariga nisbatan emas, Vatanga, ota-onalariga, bilimga, hunarga nisbatan sevgini, mehr-muhabbatni his qilmoqlari darkor, menimcha. Birortasini yoqtirib qolganlarida ham uni hammaga oshkor qilish shart emas, deb o'ylayman.

BOBUR MIRZOLAR SEVGISI QANI?

Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» asarini bir esga olaylik. Bobur Mirzo Oyshabegimni g'oyibona sevib qoladi. Yuz kun davomida Samarqandda yashab, Oyshabegim bilan yuzma-yuz ko'rishmagan ekan. Bunga urf-odatlarimiz va

Maktabdagi muhabbat yoshlik hayosi mone'lik qilgan ekan. Sevgisini oshkor qilishga jur'at etmay, unga bag'ishlab pinhona g'azallar bitib yurgan...

Maktab yoshida sevgini shunchaki ermak bilib, tor tushunchalar bilan anglaydigan tengdoshlarimga, o'tkinchi bir havasni sevgi bilan adashtirib, bu so'zni siyqalashtirib, pok va samimiy tuyg'u - muhabbatga til tekkizmang, degim keladi.

Malika QOBULOVA,
Jizzax viloyati, Paxtakor tumani.

SOG'INCH O'RTAMOQDA

Ma'yus ko'zlaringda nelar yashirin,
O'tkir nigohlaring ezar yuragim.
Sen aytgin, aytaqol, men ne qilayin,
Baxtiyor ko'rish-chun seni azizim?

Sog'inch o'rtamoqda, qalbim qiynoqda,
Iliq so'zing uchun beraman jonim.
Nigohim qadalgan sening yo'lingga,
Diydoringga to'ysin intiq ko'zlarim.

Qaniydi aytolsam dil izhorimni,
Iztirob va alam tirnaydi qalbim.
Yurakdagi beg'ubor o'tli otashni,
So'ndirib bo'lmaydi aslo, azizim.

Fariza ZOKIROVA,
Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi
2 - o'rta maktabning 9 - «A» sinf o'quvchisi.

«KO'NGLIMNING MULKI»

Aziz tengdoshlarim, men bugun bizni ba'zan shirin-shirin orzular og'ushiga g'arq qiladigan, ba'zan olov misol qalblarimizni kuydiradigan ajib bir hissiyot - sevgi haqida yozmoqchiman. O, muhabbat! Shoir-u yozuvchilarimiz qalamida, hofizlarimiz tillarida ardoqlanuvchi beg'ubor tuyg'u. Sevgini har kim har xil tushunadi. Sizlarga so'zlamoqchi bo'lgan hikoyam qahramoni-sinfoshim Gulruhsor ham uni o'zicha anglaydi. Yaqinda bilib qoldik, u Bunyod ismli bir bolani juda yoshlik chog'laridanoq sevib yurarkan. Dugona bo'la turib bizdan sir saqlab kelganiga qoyilman. «Sevishingni o'ziga aytmaysanmi? U boshqasiga ko'ngil qo'ysa nima qilasan?», desak, u: «Hech qachon sevgimni oshkor qilmayman, axir men qiz bolaman-ku. Boshqasini sevsam sevaversin. Mening sevgim esa ko'nglimning mulki, uni hech kim tortib ololmaydi», deb javob berdi.

Gulruhsor haqmi? Xolis bahoni berish sizdan, do'stlarim.

Go'zalxon BAXTIYOR qizi,
Poytaxtdagi 116 - maktabning 9 - «B» sinf o'quvchisi.

SAROB

Hayot charxpalagi aylanar ekan,
Yurak birla yurak bog'lanar ekan.
Afsuski vaqt o'tib, oy, yillar o'tib,
Muhabbat sarobga aylanar ekan.

Men buni keyinroq angladim, nechun,
Nahotki sevgimiz arzon edimi?
Tushunib yetgandim, ammo endi kech,
Dildagi orzular armon edimi?

Hayhot bu sevgimas, SAROB bo'ldimi,
Nahotki seni men «sevdim» demayman?
Ammo shuni yodingda saqlagin mangu,
Men endi hech kimni sendek sevmayman.

Lobar AZIZXO'JAYEVA,
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi 30 - maktabning 7 - «G» sinf o'quvchisi.



Ma'suda BADALOVA,

169 - o'rta maktabning tarbiyaviy ishlar bo'yicha rahbari:

-33 yillik ish faoliyatim davomida maktabdagi muhabbatga ko'p bora guvoh bo'lganman. O'quvchilarim meni o'zlariga sirdosh bilib, bu borada maslahatlar so'rashardi. Men esa ularga sevgining o'yinchoq emasligi, uni oyoq osti qilish yaxshi emasligi haqida ko'p gapirardim. Bu his-tuyg'ular haqida inson biroz aqlan ulg'aygach o'ylasa yaxshi bo'lishini yotig'i bilan tushuntirib qo'yardim.

Farida G'ULOMOVA,

Akmal Ikromov tumanidagi 106 - o'rta maktabning ma'naviyat - ma'rifat ishlari rahbari muovini:

-Avvallari, maktab o'quvchilari ishq, muhabbat haqida o'ylashga juda yoshlik qiladilar, bu yoshdagi sevgi shunchaki o'tkinchi havas deb hisoblardim. O'ylab qaragam, maktab partasidayoq sevishib, turmush qurgan tanishlarim ham yo'q emas ekan.

Shunday bo'lsa-da, o'quvchilarga qarata: «Aziz o'g'il-qizlarim. Sizning asosiy vazifangiz - bilim olish, hunar o'rganish. Chunki siz Vatanimizning kelajagisiz. Muhabbat haqida o'ylashga esa hali vaqtingiz juda ko'p bo'ladi», degim keladi...

Shahnoza SAMATOVA,

106 - maktabning ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha direktor muovini:

-Sevgi - har kimga ham nasib etavermaydigan ilohiy tuyg'u. U yosh tanlamaydi. Maktab o'quvchilari orasidagi muhabbatga ham odatiy hol deb qarayman. Uni avaylab-asrashga, ardoqlashga, shuningdek, hammaga doston qilmaslikka chaqiraman. Hayotlari poydevorini maktabdagi muhabbat asosida qurgan insonlar ozmunchami? Shunday ekan, seving va sevilning, hayot shunisi bilan go'zal...

Mashkura VAHOBOVA,

169 - maktab ruhshunosi:

-Ruhshunoslarning ta'kidlashlaricha, maktabdagi muhabbat o'quvchilarning fikrini chalg'itar ekan. Ko'p vaqtini asosiy vazifasi bo'lmish o'qishga emas, bekorchi ishlarga sarflar ekan. Ularga bir maslahatim - bu borada sizdan ko'ra ko'proq hayotiy tajribaga ega bo'lgan kattalarning maslahatlariga quloq tuting.

Aziz ustozlar, Siz ham bu boradagi fikr-mulohazalaringiz bilan o'rtoqlashasiz, degan umiddamiz. Maktublaringizni kutib qolamiz.

Aziz o'quv-

chilar, mana, tengdoshlaringizning maktabdagi muhabbat xususidagi ayrim fikrlari bilan tanishdingiz. Ular turli-tuman: ulardan biri muhabbatni har kimga ham nasib etavermaydigan ilohiy ne'mat deb o'ylasa, yana kimdir, o'quvchilarni o'qishdan, asosiy maqsad sari intilishdan chalg'itadigan tuyg'u, deb aytadi. Xo'sh, bu borada ruhshunos ustozlaringizning fikrlari qanday?

Shahrimizdagi 106 - maktabning 10 - sinf o'quvchisi Nodiraxon Hoshimova ularning fikrlarini yozib oldi.

Munira SAFOYEVA,

106 - maktabning bosh ruhshunosi:

-Muhabbat - bu jiddiy tuyg'u. Unga yengil-yelpi qaramaslik lozim. Maslahatlarim ko'proq qizlarimizga tegishli. Yoshlikdanoq iboli, hayoli, odobli bo'lib ulg'ayib. Hissiyotlaringizni o'zgalardan, ayniqsa, o'g'il bolalardan sir saqlashga o'rganing. Qanchalik sirli bo'lsangiz, shuncha ko'p e'tiborga sazovor bo'lasiz.

NASIHAHAT

Hikoyalar yozishni mashq qilib yurgan bir yosh havaskorga nasihat qilishibdi:

-Siz doimo buyuk yozuvchilarning

yo'lidan yuring...

Shundan buyon haligi havaskor har kuni Shota Rustaveli ko'chasidan o'tarkan.



KIMYO DARSIDA

-Oltin ochiq joyda qolsa nima bo'ladi?

-Yo'qoladi...



YUTUQ

-So'nggi o'yinimda meni qanday qilib qo'llarida ko'tarib olishganini bir ko'rsangiz edi...

-Yo'g'-e, hal qiluvchi to'p kiritdingmi?

-Yo'q, yiqilib tushib, oyog'imni sindirib oldim...

Bahodir KARIMOV,

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri.

Bizning to'garak

Qadim o'tgan zamonda, qalin o'rmon tomonda bir chaylada

kuchuk bilan mushuk ahil, inoq yashashar ekan. Ular har kuni birga ovga chiqib, topganlarini birga baham ko'rishar ekan.

Lekin asosan o'ljani kuchuk topib kelarkan. Falakning gardishi aylanib, bir kuni o'ljani Mosh ilgariroq payqab qolibdi. Fe'li aynab, kattagina go'sht bo'lagini kuchuk bilan bo'lishgisi kelmay qolibdi. «Bor, sen ham o'zingga biror yegulik topib kelgin», debdi. Sodda kuchuk bo'lsa, topgan go'shting ikkimizga bemaol yetadi-ku, debdi.

KUCHUK BILAN MUSHUK HAQIDA ERTAK

«Buni men topdim-ku», debdi mushuk go'shtni panjalari orasiga yashirib. Kuchuk xafa bo'lib, o'ziga yemish izlash uchun o'rmonga kirib ketibdi...

Endi gapni mushukdan eshitaylik. Kattagina go'sht bo'lagidan ozroq yegan ekan, qorni to'yib qolibdi. Ko'zi ochlik qilib, yana yesa ham go'sht tugamabdi. Ko'p ovqat yeb qo'rganidan qorni og'irlashib, yurolmay qolibdi. Daraxtning soyasida yotib, uxlab qolibdi. Bir mahal ko'zini ochib qarasa, o'rmonga qorong'ulik cho'mgan ekan. Qo'rqib ketib, chaylasi tomon oshiqibdi. Qorong'ulikda yo'ldan adashib, chuqurga tushib ketibdi. Ovozining boricha «miyov»lab, yordamga chaqira boshlabdi. Shu damda kun bo'yi yemish izlab, hech vaqo topolmay och-nahor qaytayotgan kuchuk uning ovozi eshitib qolibdi va yordamga oshiqibdi. Holsizlanib qolsa ham, bor kuchini to'plab yuguribdi va ne mashaqatlar bilan mushukni chuqurdan tortib olibdi. Mushuk uyalganidan yerdan boshini ko'tarolmashish. Bazo'r kechirim so'rabdi. Sofdil, ko'ngli

ochiq kuchuk uni zumda kechirib yuboribdi va ular yana chaylada ahil-inoq yashay boshlabdilar.

Qissadan hissa shuki, qizq'anchilik, ayyorlikning umri juda qisqadir.

Zebuniso XUSHVAQTOVA,

Toshkent shahar,

irg'ali tumanidagi

305 - maktabning 8 - «A» sinf

o'quvchisi.



OPPOQ'OYNI KO'RDADINGIZMI?

Men hayvonlarni juda yoqtiraman. Har doim onamni «Zoomagazin»ga borishga ko'ndirsam, rosa xursand bo'lib ketaman. Siz hech «Zoomagazin»ga borganmisiz? U yerdachi, turli-tuman qushlar, kichkina-kichkina shirintoy, yo'qimtoy hayvonchalar, rangli baliqchalarni bir ko'rsangiz edi... Oyim



menga o'sha do'kondan ikkita to'ti olib berganlar. Ammo qiziqchi Obid Asomovni

to'tilaridek gapirmaydi. Rosti shu to'tilarimni gappa o'rgataman deb rosa bir yil ovora bo'ldim.

Foydasi bo'lmadi. Shuning uchun bu «ikkichi» to'tilar bilan unchayam qiziqmay qo'ydim. Bir kuni uyimizning eshigi oldiga oppoqqina chiroyli mushukcha adashib kelib qoldi. Men uni oyimdan yashirgancha uya olib keldim. O'ziyam rosa och ekan. Yarimta kolbasani ko'rdim demadi. Qorni Garajimiz oldida unga bir uycha

qo'limni yalab, uxlab qoldi. Ko'chadan oyimning ovozi kelayotganini eshitib, mushukchani divanning tagiga yashirib qo'ydim. Oyim uya kirib kelishlari bilan divan ostidagi mushukcha chiqib qoldi deng... Oyim mushukni yomon ko'radilar. «Buni tezda yo'qot», dedilar. Oyimga rosa yalinsam ham baribir uni uya olib qolishimga ruxsat bermadilar. Noiloj mushukchani ko'chaga tashlab keldim. Uya kirganimda miyanga zo'r fikr keldi. Garajimiz oldida unga bir uycha

yasadim. Hashaklar bilan o'ralgan uychaga uni kiritib qo'ydim. Unga Oppoq'oy deb ot qo'ydim. Oppoq'oy! Yaxshi-a? Ertasiga sahar turdim-da, bir bo'lak kolbasa olib Oppoq'oyni oldiga chopdim. Ammo, uycha ham, Oppoq'oy ham yo'q edi. O'sha yerda o'tirib olib rosa yig'ladim. Axir oyim «Zoomagazin»dan olib bermagan mushukchani endi topgan edim-da. Agar birortangiz mening Oppoq'oyimni ko'rib qolsangiz, albatta menga xabar bering.

Zahro BAXTIYOR qizi,

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi

17-lingivistik maktabining 1-«B» sinf o'quvchisi.

Maymun turi								Qizlar ismi	Sultonov	Namuna	
Nemis fizigi	Fan	3	Gidro elektrostansiya		Aql Kun-	6					Tasniv Pufak
Yoz oyi					Tun qushi					Holbuki	
			Gap bo'lagi		7		...Vol som...		Xor-u...		
Kuch	2		2003 yil ... mahalla		Otaning akasi						
Indoneziya poytaxti			Ozarbayjon poytaxti	Poydevor					Latifa		Mushtaq Bo'yoq
				Ona (shevada)							
...Mol...sur	Xarita (ruscha)	Lotin alifbosisidagi 5 harf	7								Sochi yo'q
Mahal	Osmon	5			Tuya hukrisi Tulpor		Bahor darakchisi Sabr		Gazeta nomi III-shaxs		

Tuzuvchi: Qobulhon ZOKIROV, Toshkent shahridagi 169- maktabning 7- «G» sinf oquvchisi.

TONG yulduzi
O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Risboy JO'RAYEV,
Mirakmal MIROLIMOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida № 022 raqam bilan 2003 yil 11 dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

Toshkent matbaa kombinatida chop etildi. Adadi - 35868 Buyurtma № J 000198

Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Obuna indeksi: 198

Bizning elektron pochta: ijod@uzpak.uz
Tel: 144-63-08 144-62-34
Tel./ faks: (99871) 144-37-24